
Monitoring o'rganishlari olib borildi

Respublika ixtisoslashtirilgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona viloyat filialida monitoring tashrifini amalga oshirilib, bemorlarga yaratilayotgan sharoitlar, oziq-ovqat va sifatli tibbiy yordam ko'rsatish holati o'rganildi.

Aniqlanishicha, ushbu tibbiyot muassasasida bemorlar majburiy va ixtiyoriy davolanish uchun jami 170 o'rin mo'ljallangan bo'lib, ayni kunda 178 nafar, shundan 98 nafari majburiy, 80 nafari ixtiyoriy davolanayotganlarni tashkil etmoqda. Bemorlarning 3 nafari ayollar bo'lib, ularga alohida xona ajratilib, tegishli muolajalar olib borilayotganligi aniqlandi. Joriy yilning 4 oy davomida sud-narkologik ekspertizasidan 289 nafar shaxs o'tkazilgan, shundan 137 nafari fuqarolik ishlari bilan, bulardan 135 nafari surunkali alkogolizm va 2 nafarida giyohvandlik kasalliklari aniqlanib, majburiy davolanish bo'limiga yotqizilgan. Jinoyat ishlari bo'yicha o'tkazilgan 152 nafaridan 48 nafarida giyohvandlik, 1 nafarida zaharvandlik va 5 nafarida surunkali alkogolizm kasalliklari aniqlangan, 56 nafari epizodik narkotik iste'mol qiluvchilar bo'lib, qolgan 42 nafarida kasallik aniqlanmagan.

Bundan tashqari, Qonunning 32-moddasida majburiy davolanayotgan shaxslarga nisbatan mehnat terapiyasini tegishli korxonalar bilan qonun talablari asosida tuzilgan shartnomalar asosida amalga oshirish yo'lga qo'yilmagan. Faqatgina, ularni narkologiya muassasasi hududini obodonlashtirish ishlariga jalb qilish bilan chegaralanilgan.

Garchand, O'zbekiston Respublikasining "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasida narkologik kasallikka chalingan shaxslar narkologiya muassasasi bilan tibbiy yordam va reabilitatsiya ko'rsatish to'g'risida yozma shartnoma tuzish xuquqi belgilab qo'yilgan bo'lsada, muassasada biron-bir bemor bilan bunday shartnoma tuzilmagan.

O'zbekiston Respublikasining "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida"gi Qonunning 23-moddasida narkologik kasalliklarga chalingan shaxslarni tibbiy ijtimoiy reabilitatsiya qilish faqat narkologik kasallikka chalingan shaxsning ixtiyoriy yozma roziligi asosida, narkologiya muassasasi bilan tibbiy yordam va reabilitatsiya ko'rsatish to'g'risida yozma shartnoma tuzilganidan keyin amalga oshirilishi belgilangan bo'lsada, bemorlar bilan bunday shartnomalar tuzilmaganligi aniqlandi.

Shuningdek, avvalgi tashrifda ushbu Qonun talablariga zid ravishda majburiy davolanayotgan shaxslar uchun kutubxona tashkil etilmaganligi ko'rsatilib, ushbu kamchiliklarni darhol bartaraf etish, bemorlarga kerakli sharoitlar yaratish xaqida tegishli tavsiyalar berilgan edi. Hozirda ushbu kamchiliklar Ombudsman mintaqaviy vakili tavsiyasi bilan belgilangan talablarga mos ravishda bemorlar uchun kutubxona tashkil qilinganligi ma'lum bo'ldi.

Bemorlar M.N, A.X va O.Plar bilan o'tkazilgan suxbatda ularga o'z vaqtida kerakli muolajalar o'tkazilayotganligi, tibbiy xizmatdan e'tirozlari yo'qligi, oziq-ovqat ta'minotidan ham shikoyatlari yo'qligini bildirdilar.

Monitoring jarayonida tibbiyot markazining viloyat filialidagi sharoitlar, oziq-ovqat ta'minoti, majburiy va ixtiyoriy davolanayotgan bemorlarning saqlanishi o'rganildi. Majburiy davolanayotgan bemorlarning 18 nafari bilan ommaviy, 4 nafari bilan yakkama-yakka uchrashib, suxbat o'tkazildi.

Majburiy davolanayotgan bemor ayollar V.K va L.O.lar bilan ham suxbat o'tkazilganda muolajalar o'z vaqtida o'tkazilayotganligi, oziq-ovqat va dori-darmon ta'minotidan e'tirozlari yo'qligini bildirdilar. Ayollar erkaklardan ajratilgan holda alohida xonalarda davolanayotganligi, ularga ayol tibbiyot xizmatchilari xizmat ko'rsatayotganligini guvohi bo'ldik.

Narkologiya muassasasidagi oshxonalar ko'zdan kechirilganda belgilangan menyularga asosan bemorlarga taomlar tayyorlanib, oziq-ovqat maxsulotlari to'liq va taomnomaga mos ravishda berilayotganligi ma'lum bo'ldi. Muassasada bemorlarga fizioterapiya muolajalari o'tkazish uchun qo'shimcha ravishda tegishli tibbiyot uskunalari keltirilganligi va hozirda ular bilan bemorlarni davolanilayotganligi aniqlandi.

Monitoring o'rganishlari davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berildi.

A.Kamilov, Ombudsmanning Farg'ona viloyati mintaqaviy vakili.